



SHAYBONIYLAR QO'SHINLARI QO'LLAGAN HARBIY TAKTIKALARI VA JANG USULLARI

Boqiyev Ismoil Sherali o'g'li

Osiyo texnologiyalar universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17111596>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-sentabr 2025 yil

Ma'qullandi: 10-sentabr 2025 yil

Nashr qilindi: 13-sentabr 2025 yil

KEY WORDS

Barong'or, Javong'or, Zabongiri, Ilg'or, Shabixun, Bargustivon, Tusqovul, To'lg'ama, Mazbut, Murchal, Sarkub.

ABSTRACT

Mazkur maqolada Shayboniylar hukmronligi davrida qo'shinlarning harbiy aslahalari, ularning shakllanishi, tayyorlanishi va qo'llanishi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Unda nayza, qilich, kamon, o'q, zirh, dubulg'a kabi asosiy qurollar hamda boshqa himoya vositalarining tuzilishi va jang maydonida qo'llanish xususiyatlari ochib beriladi. Maqolada Shayboniylar harbiy islohotlarida bu aslahalarning tutgan o'рни, jangovar tayyorgarlikdagi roli va harbiy salohiyatni oshirishdagi ahamiyati ilmiy asosda yoritilgan.

O'rta asrlarda harbiy san'at va qo'shin tashkiloti davlatlarning siyosiy barqarorligi va hududiy kengayishida muhim omil bo'lgan. Bu davrda jangovar tayyorgarlik nafaqat askarlarning jismoniy kuchi va mahoratiga, balki harbiy-texnik ta'minot, strategiya va taktik usullarni puxta egallashga ham tayanardi. Ayniqsa, Shayboniylar davridagi harbiy yurishlarda qadimiy an'analar, ko'chmanchi xalqlarning boy tajribasi va jangovar hiylalardan keng foydalanilgan. Ushbu maqolada Shayboniylar qo'shinining tashkil etilishi, jangovar bo'linmalarining vazifalari, qal'a qamali va mudofaa usullari, shuningdek, jang taktikasi va harbiy hiylalarning o'рни tarixiy manbalar asosida tahlil etiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Shayboniylar davri harbiy san'ati va qo'shin tuzilmasi bo'yicha tadqiqotlar asosan o'rta asr tarixchilari va zamonaviy tarixshunoslik manbalariga tayanadi. Eng muhim birlamchi manbalar qatoriga G'iyosiddin Xondamirning "Habib us-siyar", Muhammad Haydar Dug'latning "Tarixi Rashidiy", Muhammadiyor ibn Arab Qatag'onning "Musaxxir al-bilod" kabi asarlari kiradi. Ushbu manbalarda Shayboniylar qo'shinining tarkibi, harbiy yurishlar, jang taktikasi hamda qal'a qamali bo'yicha bevosita ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida Shayboniylarning jang uslublari, xususan "egirmishiy" va "qochib urushish" taktikalariga oid qimmatli tarixiy guvohliklar mavjud.

Ikkinchi darajali manbalar sifatida zamonaviy tadqiqotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek va xorijiy olimlar tomonidan Shayboniylar davlatining siyosiy, ijtimoiy va harbiy faoliyatiga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, B.A. Ahmedov, R. Mukminova, A. Muhammadjonov kabi olimlarning asarlarida Shayboniylar davlatining harbiy tuzilishi, qo'shin boshqaruvi va yurish strategiyasi batafsil yoritilgan. Shuningdek, rus va g'arb tarixchilari — V.V. Bartold, A.Yu. Yakubovskiy, R.G. Mukminovlarning tadqiqotlarida ham o'rta

asr Movarounnahridagi siyosiy voqealar va harbiy tizim haqida chuqur tahliliy ma'lumotlar keltiriladi.

Arxeologik izlanishlar ham qo'shimcha manba sifatida muhimdir. Qal'a va mudofaa inshootlarining qoldiqlarini o'rganish orqali o'sha davr harbiy texnologiyalari, mudofaa usullari va jangovar tayyorgarlik darajasi aniqlanadi. Shu bilan birga, qo'lyozma fondlaridagi xaritalar va miniatyuralar ham qo'shin tuzilishi hamda jang manzaralarini tasavvur qilishda muhim rol o'ynaydi.

Mazkur tadqiqot tarixiy-tahliliy va qiyosiy metodlar asosida olib borildi. Harbiy tizimni o'rganishda birlamchi manbalarni filologik tahlil qilish, ularning mazmunini zamonaviy tarixiy voqelik bilan solishtirish va izohli sharhlar berish usuli qo'llanildi. Qal'a qamali va jang taktikasini o'rganishda arxeologik topilmalar va yozma manbalardagi ma'lumotlar qiyosiy tahlil qilindi.

Natijalar. O'rta asrlarda janglarda faqat jismoniy tayyorgarlik emas, balki harbiy-texnik ta'minot va harbiy san'atning nozik jihatlarini chuqur bilish ham muhim ahamiyat kasb etgan. Harbiy guruh va qismlarning ma'lum tartib va qoidalarga asoslanib tashkil etilishi harbiy bilim va tajribani talab qilgan. Ayniqsa, jang jarayonlarida qadimiy an'analar va urf-odatlariga amal qilingan bo'lib, bunda ko'chmanchi xalqlar va elatlar yillar davomida to'plagan tajribasidan keng foydalanilgan. Sababi, ko'chmanchi hayot tarzining o'zi harbiy turmushga yaqin bo'lgani uchun, ular jangovar ishga moslashgan va harbiy harakatlarda tezda puxta ko'nikmaga ega bo'lganlar.

Amir Temur davrida bo'lgani kabi Shayboniylar qo'shini ham o'n minglik, minglik, yuzlik va o'nlik bo'linmalarga bo'lingan. Qo'shinning asosi qalb deb ataluvchi markaziy qism, barong'or (o'ng qanot) va javong'or (chap qanot) qismlardan tashkil topgan. Qanotlarga rahbarlik qilgan sarkardalar o'g'lon deb atalgan. Qo'shin oldida manglay deb ataluvchi harbiy qism yarim doira shaklida saf tortib borgan. Uning oldida esa tez harakatlanuvchi kichik jangovor qism - ilg'or bo'lgan. Ilg'or qism qo'shından oldinda yurib, vaziyatni tekshirib borgan va lozim bo'lsa qisqa janglarga ham kimvchi dasta hisoblangan. Umumiy qo'shin oldida qorovul deb ataluvchi maxsus qism, qo'shinning o'ng va so'l qanotlari oldida boruvchi kichik g'ul deb nomlanuvchi bo'linmalar hamda qo'shin ortidan boruvchi maxsus yordamchi bo'linma – chanox harakat qilgan. Mazkur qismlar oralig'ida maxsus choparlar xizmati tashkil etilgan bo'lib, ular bosh qo'mondon ko'rsatmalarini sarkardalarga yetkazib turgan.

Qo'shin tarkibida tug'chi qism, ya'ni bayroq ostida zaxirada turuvchi (tug'ni qo'riqlovchi) harbiy bo'linma hamda zabongiri, ya'ni dushman tomonidan "til" (dushman qo'shini haqida xabar beradigan asir) topib keluvchi maxsus bo'linma va xabargiri - dushman to'g'risida ma'lumot keltiruvchi maxsus (ayg'oqchi) bo'linmalar ham bo'lgan. Bu vazifalarni vaziyat taqozo etganda ilg'or va qorovul qismlar ham bajargan.

Tarixiy manbalarda tungi hujumlar "shabixun" deb atalib, unda qo'shinning asosiy qismi qatnashmagan, balki ayrim qo'riqchi guruhlar dushmanning ma'lum guruhiga to'satdan hujum uyushtirib, asosan o'lja va asirlar qo'lga kiritilgan. Tunda rejalashtirilgan yurishlar paytida, maxfiylikni ta'minlash maqsadida, olov yoqishga ruxsat berilmagan hamda qo'shinda mavjud ozuqa bilan cheklanilgan [1].

Yengilgan qo'shin yoki uning ma'lum qismi jang maydonidan qochayotganda tezlikka ta'sir ko'rsatuvchi mol va buyumlarni tashlab qochgan. Bundan ko'zlangan maqsadlardan yana

biri, quvib kelayotgan dushman ilg'ori o'ljani qo'lga kiritib, ular bilan ovunishi, taqsimlashga kirishishi hamda chekinayotgan qo'shinni ortiq ta'qib qilmasligi kerak edi.

Qo'shinning asosiy qismi chekinayotgan paytda, tusqovul deb atalgan, dushman yo'lini ma'lum muddat to'sib turishga mo'ljallangan bo'linma tayinlangan [2].

Bundan tashqari, chekinish yoki ta'qibdan qutulish uchun ko'p hollarda tezlikka ta'sir ko'rsatuvchi ortiqcha aslahalar tashlab ketilgan, hatto, manbalarda qochish chog'ida otlaming kejiimi (bargustivon) kesib tashlanib, dushman ta'qibidan uzoqlashilganligi haqida ma'lumotlar mavjud.

Jang qilish uchun ham qulay joylar tanlangan. To'plar bir-biriga zan- jirlangan holda tepaliklarda joylashtirilgan. Suvoriylar qo'shinning asosiy qismini tashkil etganligi sababli, shayboniylar ochiq maydonda, tekislikda jang olib borishga intilganlar. Qo'shin tarkibidagi eng uchqur otlar asosiy qismning yon tarafidagi kichik g'ullarda joylashtirilgan. Jang boshlanishi bilan suvoriylar tezlik bilan dushman qo'shini qanotlarini aylanib o'tib, ularni o'rab olishga harakat qilgan. Shayboniylar bilan bir necha bor to'qnash kelgan Zahiriddin Muhammad Bobur bu taktikani quyidagicha tasvirlaydi: "O'zbeklar bizning ilgarimizdan ham, ortimizga ham bostirib kelib, elimizni sarosimaga soldi. Ularning urushdagi ulug' hunari ushbu to'lg'amadir va hech bir urush to'lg'amasiz o'tmaydi" [3].

Bu usul ko'pgina o'rta asr manbalarida "egirmishiy" deb yuritiladi. Shayboniylarda ham shunday hiylalar ishga solinib, qal'alar qamal qilingan paytlarda, dushman qo'shinini tashqariga chiqarish yo'llarini qidirganlar va himoyachilar qal'adan chiqishgach, yolg'ondan chekinganlar. Dushman qo'shin ortidan quvib, pistirmaga duch kelgan va halokat topgan.

Muhokama. Shu davr tarixchilari G'iyosiddin Xondamir va Muhammadiyor ibn Arab Qatag'onlar bu usulni "qochib urushish" deb atashadi (1510-yilgi Marv yaqinidagi jangda Muhammad Shayboniy o'ziga qarshi qo'llangan "qochib urushish" taktikasi qurboniga aylangan edi). Bu usul "udmtmishiy" (hiyla ishlatib yolg'ondan chekinish yoki qochib urushish) deb ataladi. Bundan tashqari, shayboniylar jang paytida muvaffaqiyatsizlikka uchragan taqdirda, kamonchilar o'q yomg'irini tinimsiz yog'dirib turishgan (shiba usuli) va shu tariqa safni buzmaganda holda chekinganlar. Bunday chekinish "shundulomishiy" deb atalgan.

Qo'shinning ma'lum qismini pistirmaga qo'yib jang qilish ham Sharq mamlakatlarida asosiy jang usullari sirasiga kirgan. Pistirma ko'p hollarda zaxira qism hisobidan tashkil etilib, jang taqdirini hal qilishda alohida ahamiyatga ega bo'lgan. Qal'a musoxarasi uchun bo'lgan janglarda ham qo'shin ortidagi so'nggi saf doimo pistirmaga qo'yilgan. Qo'shinning oldingi safi jang qilish uchun dushman lashkariga tashlanib, biroz jang qilganidan so'ng, pistirma tomonga chekingan, dushman vaqtinchalik g'alabadan quvonib, ularni ta'qib qilgan va pistirmaga duch kelib, mag'lub bo'lgan. Favqulodda holatlarda esa, qo'shinning barcha qismi jangga tashlangan. Bu usul "sultoniy jang" deb atalib, lashkarboshi tomonidan qo'shinning asosiy kuchlari maydonga tashlanishini anglatadi.

Harbiy hiylalar orasida "Yada" marosimi ko'p bora amalga oshirilganligi manbalarda bir necha bor tilga olinadi. O'rta asrlarda turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan ob-havoni o'zgartirish, nogahon qor va yomg'ir yog'dirish uchun qo'llaniladigan "sehrli tosh" - yada deb atalgan. Uni qal'a mudofaasida (yong'in, suvsizlikdan qutulish), dushman qo'shinini chalg'itib, tutib turish (qo'shinning barchasi bir joyga jam bo'lguncha dushmanni jangdan tiyib turish) maqsadlarida qo'llab, ko'zlangan natijaga erishilgan. Qo'shin tarkibida shunday qobiliyatli

kishilar ham bo'lganki, ular qulog'ini yerga berib yotgan yoki shamolga qarshi turgan holda o'tliqlar qaysi tomondan va qancha masofada kelayotganini hamda ulaming sonini aytib bera olgan.

Muhammad Shayboniyxon, Ubaydulla sulton, Abdullaxon ibn Iskandarxonlaming shahar va qal'alami egallashda qo'llagan taktikalari mudofaachilami doimo qiyin holatga solib qo'ygan. Qala'larning ichki qismiga kirib olish uchun, yuqorida eslatilganidek, kengligi 2-3 kishining yonma-yon chiqishiga imkon beruvchi shoti va ulama narvonlardan foydalanilgan. Hujumchi qismlar bellariga uzun arqonlar bog'lab olgan bo'lib, devor ustiga chiqishgach, arqonni pastga tashlab, safdoshlarining tepaga chiqishlariga ko'maklashishgan.

Shuningdek, xandaqning atrofidan o'ralar kovlanib, suvi chiqarib yuborilgan. Keyin tevarak-atrofdagi daraxtlar kesilib, devor yonidagi xandaqlar ulaming kundalari bilan to'ldirilib, devor tepasiga qadar o'ziga xos zinapoya hosil qilingan. Bunday ishlar kamondozlar yoki to'fangdozlaming devor ustidagi mudofaachilami tinimsiz o'qqa tutib, yog'och tashuvchilarga tahdidini qaytargan holda yoki tungi paytlarda maxfiy ravishda bajarilgan. Shu tariqa qal'a devorini shiddat bilan egallash imkoni yuzaga kelgan [4].

Qal'alar qamali chog'ida, shuningdek, maxsus murchal (okop), sarkub (tuproq va toshdan devor balandligida yoki undan pastroq qilib tiklangan tepalik) qurilib, murchal orqali devor tagidan lahim kovlangan yoki uning ichidan turib qal'a devori ustidagi burjlar panasidan o'q otuvchilami nishonga olishgan. Sarkub esa, jangni kuzatish yoki qal'a devori ortiga yashiringan dushmani o'qqa tutish uchun maxsus joy vazifasini o'tagan. Keyinchalik, to'plami qo'llash keng rasm bo'lgach, hujum paytida, asosan, qal'a buijlarini urib tushirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bundan ko'zlangan maqsad, burj ortida himoyalani, o'q, tosh va boshqa narsalar irg'ituvchi himoyachilaming pozitsiyalariga barham berishdan iborat bo'lgan.

Shayboniylar qo'shinida to'p va to'fang otuvchilar doimo piyoda harakatlanishgan (otliq to'fangchi o'tni cho'chitib yubormasligi uchun) hamda qo'shinning oldingi safiga joylashtirilgan. Ulaming bunday tartibda harakatlanishining yana bir sababi, nishonga olishda piyoda, tik holatda muvozanatni saqlab turish lozim edi. Ular hali dushman baqamti kelgunga qadar o'z ishlarini bajarishgan, keyin esa qilichboz, nayzaboz va boshqa yaqin masofadan turib jang qiluvchi askarlarga o'z o'rinlarini bo'shatishgan.

Qal'alar mudofaasi chog'ida esa, devor tepasidagi har bir burj uchun alohida mas'ullar belgilanib, kamonchilar joylashtirilib, ulaming oldiga o'q sandiqlari (maxsus sadoq - zihdon) qo'yilgan va qal'a devoriga shoti qo'yuvchilar tinimsiz o'qqa tutilgan. Qal'a darvozalari asosan ichkariga ochilgan va ichkari tarafidan tuproq uyilib, bandlar tashkil etilgan. Qal'a ichida esa maxsus ko'chabandlar - ko'chalaming boshida to'siq, barrikadalar qurilib, dushmani o'tkazmaslikka harakat qilganlar. Ko'cha yoki mahallaning oldi to'silib, jang maydoni tor bo'lgach, otdan tushib, dushmanga har burchakdan tinimsiz o'q otilgan.

Agar qamal uzoqqa cho'zilib, suv va oziq-ovqat taqchilligi yuzaga keladigan bo'lsa, qal'a darvozasidan maxsus qismlar tashqariga chiqarilgan. Ular xandaqdan suv olayotganlarida devor tepasidagi himoyachilar dushmani tinimsiz o'qqa tutib, ulaming xavfsizligini ta'minlagan. Mudofaachilar ko'p hollarda qal'adan tashqariga otlarsiz chiqib, piyoda jang qilishgan. Bundan ko'rinadiki, mudofaachilar basharti mag'lubiyatga uchrasalar, shundoq ham oziq-ovqat taqchil bo'lgan vaziyatda otlaming o'lja sifatida dushman qo'lga tushib qolmasligi maqsad qilingan. Shaharlar qamali ko'p hollarda katta o'lja ilinjida amalga oshirilardi, chunki urush paytida mahalliy aholining boyligi asosan shaharlarga olib kirilardi [5].

Shayboniylar harbiy yurishlar chog'ida to'xtash manzillarining o'mi va manzilgohlar tashkil etishga ham alohida ahamiyat berishgan. Qo'shin har gal biror-bir manzilga kelib to'xtasa, yuqorida aytilganidek, lashkargohning atrofi xandaq (o'r) bilan o'ralib, ichki tarafdin aravalar bir-biriga zanjirlanib, shox-shabbalar bilan to'silib, vaqtinchalik o'ziga xos qo'rg'on (mazbut) hosil qilingan [6]. Agar qo'shin tarkibida yuqorida aytilgan buyumlar bo'lmasa, tuya va xachirlar bir-biriga bog'lanib, ulardan mudofaa devori sifatida foydalanilgan. Istehkom kunduzgi va tungi soqchi bo'linmalari tomonidan qo'riqlab turilgan. Dushmanning qorasi ko'rinishi bilan qo'shin xandaqdan chiqqan va jangovar saf tortgan holda unga qarshi yuzlangan.

Xulosa. Qo'shinning yurish paytidagi bunday harakatlanishi tufayli ikki kunlik yo'l bir haftada bosib o'tilgan. Shayboniylarning bunday harbiy safari Dashti Qipchoq hududida keng tarqalgan an'ana bo'lib, dasht va tekislik hududlarida o'ziga xos mudofaa tizimini yaratishda qo'l kelgan.

Muhammad Shayboniy, Ubaydullaxon va Abdullaxon ibn Iskandarxon o'zlarining Xuroson tomonga yurishlari oldidan aksariyat hollarda Kasbi yoki Qarshi hududlarini qo'sh tashlash manzili sifatida belgilaganlar. Joy tanlashda strategik jihatdan munosib, qo'shinning hordiq chiqarishi, ov qilishi, harbiy mashg'ulot o'tashi uchun qulayligiga e'tibor berilgan. Qo'shin aksariyat hollarda daryo yoki kichik suv havzalari bo'yida to'xtagan.

Shayboniy sultonlar Movarounnahrda olib borgan harbiy yurishlari davomida qo'shinni to'xtovsiz harakat qildirib, shu tariqa dushmanlarning o'zaro birlashib, kuchayib ketishining oldi olinib, ularga nafas rostdashga imkon berilmagan. Kengashlardagi qarorlar maxfiy saqlangan. Agar dushman qo'shini son yoki aslaha jihatidan umumiy qo'shindan ustun bo'lsa, qo'shinda sarosima uyg'otmaslik, ularning ruhini tushirmaslik uchun askarlarga dushman holati ma'lum qilinmagan.

Adabiyotlar ro'yxati (references):

1. Xo'fiz Taniш al-Buxoriy. Abdulnoma 2-kitob. – Toshkent : “Sharq”, 2000. – B. 80.
2. Muinuddin Natanzii. Muntaxab ut-tavorixi Muinii. – Toshkent: “O'zbekiston”, 2011. – B. 97.
3. Bobur 3.M. Boburnoma. – Toshkent : “Oqituvchi”, 2008. – B. 81.
4. Zamonov A. Vuxoro xonligida qo'shin tuzulishi va harbiy boshqaruv. – Toshkent: “Bayoz”, 2018. – B. 137–138.
5. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda: Chingizxon va Amir Temur. – Toshkent: “Fan”, 1994. – B. 158.
6. Xo'fiz Taniш al-Buxoriy. Abdulnoma 1-kitob. – Toshkent : “Sharq”, 1999. – B. 202.